



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Uzun tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 7-uy. 191100. tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 12 - fevral

57-8-118-Q/22

Uzun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyat hokimining 2021-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5216-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 115-8-0-Q/21-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5216-son qarori hamda viloyat hokimining 2021-yil 27-avgustdagi 115-8-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5216-son qarori (keyingi o‘rinda Qaror deb yuritiladi) hamda viloyat hokimining 2021-yil 27-avgustdagi 115-8-0-Q/21-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur Qaror bilan:

-Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joylar bilan ta‘minlashni tashkil etish, uy-joylarning adolatli taqsimlanishi va o‘z vaqtida

ajratilishini nazorat qilish bo'yicha Respublika komissiyasining (keyingi o'rinlarda-Respublika komissiyasi) tarkibi tasdiqlanganligi;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun uy-joy xarid qilishning maqsadli parametrlari tasdiqlanganligi;

-yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga navbatga qo'yilmagan holda joylashtirilishi;

-2021-yil 1-sentyabrdan boshlab o'quv-tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash tartibi joriy etilishi;

-uy-joylarga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joy xarid qilish va qurish uchun 2021-yilda talab etiladigan mablag'larning 50 foizi O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, qolgan qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari va boshqa mablag'lar hisobidan ajratilishi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari B.Xasanovga

-2021-yil 1-dekabrga qadar mazkur qaror doirasida uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash choralarini ko'rish topshirilsin.

4. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joylar bilan ta'minlashni tashkil etish, uy-joylarning adolatli taqsimlanishi va o'z vaqtida ajratilishini nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (B.Xasanov), tuman xalq ta'limi bo'limi (S.Xudoyberdiev), tuman moliya bo'limi (B.Baratov)

-o'n kun muddatda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun mablag' ajratish to'g'risidagi takliflarni xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritsin.

-yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga ajratilgan uy-joylar yashash uchun barcha zarur sharoitlarga ega boʻlgan (taʼmirlangan va jihozlangan) holda topshirilishini taʼminlasin.

-mazkur qarorga asosan tuman prokuraturasi (I.Qosimov) yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni uy-joy bilan taʼminlash uchun ajratiladigan mablagʻlarning shakllanishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat oʻrnatsin.

6.Tuman Xalq taʼlimi boʻlimi (S.Xudayberdiev), Milliy gvardiya tuman boʻlimi (M.Normatov) Moliya boʻlimi (B.Baratov)

-uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar roʻyxatining “onlayn-navbat” tizimiga kiritilishini va doimiy yangilanishini taʼminlab borilishini taʼminlasin.

7. Tuman Adliya boʻlimi (lavozimga koʻra) yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar hamda ularni farzandlikka yoki vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan fuqarolarga Yuridik xizmat koʻrsatish markazlari tomonidan bepul yuridik xizmat koʻrsatilishini taʼminlasin.

8.Tuman hokimligi Axborot xizmati (S.Boborajabov) va boshqa tumandagi ommaviy axborot vositalariga mazkur qarorning mazmun-mohiyatini keng yoritish tavsiya etilsin.

9.Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va shaxsiy javobgar etib Milliy gvardiya tuman boʻlimi (M.Normatov), tuman xalq taʼlimi boʻlimi (S.Xudoyberdiev) belgilansin.

10.Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi oʻrinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

Hokim



Tursunov B. B.

Узун туман ҳокимининг
2022 йил 12 февралдаги
57-8-118-Q/22-сон қарорига
1-илова

**Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni
uy-joylar bilan taʼminlashni tashkil etish, uy-joylarning adolatli taqsimlanishi
va oʻz vaqtida ajratilishini nazorat qilish boʻyicha tuman komissiyasi**

Tarkibi

1. B.Tursunov - tuman hokimi, Komissiya raisi
2. I.Qosimov - tuman prokurori Komissiya raisi oʻrinbosari
3. B.Xasanov - tuman hokimining birinchi oʻrinbosari
4. M.Normamatov - tuman Milliy gvardiya boʻlimi
5. M.Ishkaraev - tuman IIB boshligʻi
6. B.Baratov - tuman Moliya boʻlimi mudiri
7. S.Xudoyberdiev - tuman xalq taʼlimi boʻlimi mudiri
8. S.Tashanov - Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi boshligʻi